



SULTAN SALAHIDDIN AYUBI, WHO RECOVERED JERUSALEM SHARIF

Mamasoliyeva Guldon Anvarvekovna

Senior teacher of the Department of World History
Andijan State University

Rahimova Ismigul Khurshidbek kizi

3rd year student of the Faculty of History
Andijan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14024119>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Salahiddin Ayyubi, Jerusalem, Muslims, history, Battle of Hattin, military strategy, religious unity, culture, diplomacy.

ABSTRACT

One of the important events in the history of the Ummah is the recapture of Jerusalem by Salahuddin Ayyubi. This article analyzes Sultan Salah al-Din Ayyubi's military strategies, religious motivations, and his role in the recapture of Jerusalem. Also, this event is considered the unity of Muslims and its place in world history.

QUDDUSI SHARIFNI QAYTARIB OLGAN SULTON SALOHIDDIN AYYUBIY

Mamasoliyeva Guldon Anvarvekovna

Andijon davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi

Rahimova Ismigul Xurshidbek qizi

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14024119>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Salohiddin Ayyubiy, Quddus, musulmonlar, tarix, Hattin jang, harbiy strategiya, diniy birlik, madaniyat, diplomatiya.

ABSTRACT

Ummat tarixida muhim o'rin tutadigan voqealardan biri — Salohiddin Ayyubiy tomonidan Quddusni qaytarib olishidir. Ushbu maqolada Sultan Salohiddin Ayyubiyning harbiy strategiyalari, diniy motivatsiyalari va Quddusni qaytarish jarayonidagi rolini tahlil qilinadi. Shuningdek, bu voqea musulmonlarning birligi va jahon tarixidagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

KIRISH

Salohiddin Ayyubiy — o'rta asrlar musulmon tarixida muhim shaxs bo'lib, u faqat harbiy lider sifatida emas, balki davlat arbobi va din arbobi sifatida ham tanilgan. U 1137-yilda Misrda tug'ilgan va asosan Suriya va Iroq hududlarida faoliyat yuritgan. Salohiddin Ayyubiy, o'zining jamoasi va harbiy strategiyalari bilan birgalikda, xristian krossaderlariga qarshi kurashda muhim rol o'ynadi.



Uning eng muhim g'alabalari qatoriga 1187-yilda Hattin jangidagi g'alabasi kiradi. Bu jangda u krossader qo'shinini mag'lub etib, Quddus shahrini qaytarish uchun yo'l ochdi. Quddus, musulmonlar uchun nafaqat diniy, balki tarixiy ahamiyatga ega shahar hisoblanadi, shuning uchun uni qaytarish jarayoni musulmonlar orasida kuchli ruhni shakllantirdi. Salohiddin Ayyubiy shaharni qaytarish bilan birga, uning aholisini tinchlantirishga va shaharni muhofaza qilishga ham katta e'tibor qaratdi.

Shu tariqa, Salohiddin Ayyubiy nafaqat harbiy, balki diplomatik va diniy rahbar sifatida ham o'zini namoyon etdi. U musulmonlar orasida birlik va hamjihatlikni ta'minlashga intildi, bu esa o'z vaqtida ularning kuchini kuchaytirdi va krossaderlarga qarshi kurashda muhim omil bo'ldi. Uning merosi bugungi kunda ham musulmonlar orasida hurmat bilan yod etiladi va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar qatorida o'z o'rnini egallaydi¹.

ASOSIY QISM

Salohiddin asli Kurd bo'lgan. Bir guruh tarixchilar uni yana arab bo'lganligini ta'kidlashadi. Salohiddin Ayubiy 24 yoshigacha Qur'oni Karimni yod olgan, diniy bilimlarni chuqur o'rgangan. Diniy bilimlardan tashqari Salohiddin dunyoviy bilimlarni ham yoshligidan qiziqib o'rgangan. Falsafa faniga o'zgacha qiziqish bildirgan bo'lsa undan tashqari riyoziyot (matematika) ilmiga ham oshno bo'lgan. 24 yoshidan so'ng esa hayoti jangu-jadaldan iborat bo'lgan. XII asrga kelib Abbosiylar xalifaligi uch qismga bo'linib ketadi. Misrda shia oqimidagi Fotimiylar sulolasi hukimronlik qilib, ular Bog'doddagi xalifa hokimyatini tan olmas edi. Kichik Osyo salibchilarning, Mesopatamiya va Suriya esa Saljuqiy sulton Nuriddin Zangiyning qo'l ostida bo'lgan. Salohiddin Ayyubiy harbiy faolyatini amakisi Asad ad-Din shirkux qo'l ostida kichik zobit unvoni bilan boshlagan. 1171- yilda amakisi bilan Misrga yurish qiladi. Shirkux Misrdagi Fotimiylar sulolasining hukimronligiga barham berdi. 1174- yilda Asad ad-Din Shirkux vafot etgach, Salohiddin Misr mustaqilligini e'lon qilib Ayyubiylar davlatini qurdi. Quddusni qaytarib olishga ichilgan qasam².

Yaqin va o'rta sharqda murakkab vaziyat hukm surardi. 1096- yilda muqaddas zamin Falastinni musulmonlardan qutqarishni ro'kach qilib, diniy dushmanlik bayrog'i ostida boshlangan I salib yurishi natijasida bu hududning kattagina qismi, Saljuqiylardan kegin Fotimiylar qo'lida bo'lgan Quddus bosib olingan. Quddus qirolligi, Edessa, Antiyoxyiya lotin knyazliklari barpo etilgan va bosqinchilik yurishlari to'xtovsiz davom etayotgan edi. I salib yurishi vaqtida salibchilar besh haftalik shiddatli janglardan so'ng 1099-yil 15-iyul kuni Quddusni bosib oldilar. Ular musulmonlarni, hatto xotin-qizlar, keksalarni qatliom qildilar, masjidida Aqsoga yashiringan tinch aholini ham qilichdan o'tkazdilar, shaxarni vayron qildilar, hatto musulmonlarga yordam qilgan degan bahonada Yahudiylarni qirg'in qildilar, hech ko'rilmagan vaxshiylik qildilar. Bu butun dunyoni daxshatga soldi. Salohiddin Misrda mustaqil davlat tuzgach, 1170-yilda salibchilar ustiga yurish qiladi. Remle yaqinida Quddus qiroli Balduin IV bilan bo'lib o'tgan jangda sulton kutilmaganda mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng, Ayyubiylar sultoni Qohiraga qaytishga majbur bo'ladi. Salohiddin shu paytda Quddusni qaytarib olishga qasam ichadi. Mag'lubiyatga uchragan sulton kuch to'plashdan oldin islom davlatlari ittifoqini vujudga keltirishga harakat qiladi. Biroq harakatlari natija bermagach :, Dushman qarshisida qo'lni qo'lga berish o'rniga biznikilarning og'zi nega bunday ola bo'ldi?

¹ Qo'ziyev, A. (2011). Salohiddin Ayyubiy va uning davri. Tashkent: Sharq.

² Murodov, O. (2015). Quddus va uning tarixiy ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston.



Xalifa bu urushni nega faqat Ayyubiylarning ishi deb qaraydi, nega yordamini darig' tutdi? Quddusning qo'ldan chiqishi faqat Salohiddinni emas hammasini yaralamaydimi?! Shunday ekan bu layoqaysizlik bu g'aflatni qanday tushunish mumkin? Mana bugun dushman qarshimizda, lekin xalifa hazratlari o'zini chetga olmoqda Otabeklar ham o'zini chetga olmoqda, Saljuqiylar ham shunday, shu Izaddin Ma'sud qayda qoldi?". Salohiddinning bu so'zlari, „Sulton Salohiddin“ Yavuz Baxodir o'g'lining ramanidan olingan. Bu o'sha davrdagi mavjud vaziyatni oydinlashtirgan. Bu o'rinda Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Henri Palmerston (1784-1865) ning ma'lum ma'noda realistik, egoistik maqsadlariga asoslangan, „Angliyaning doimiy do'sti ham, doimiy dushmani ham yo'q, faqat doimiy manfaatlar bor“ degan so'zi yodimga tushdi³. Muayyan ma'noda bu haqiqat, lekin umumiy tashqi dushman xavf solib turgan bir vaziyatda bir yoqadan bosh chiqarimaslik, bu ham yetmaganday, o'zaro urushga qarshi kurashish gumrohlikdan boshqa narsa emas. Bir vaqtlar bu voqeadan 50 yil o'tib Sulton Jaloliddin Manguberdi ham mo'gullarga qarshi kurashish uchun Saljuqiylar, Ayyubiylarni u bilan ittifoq tuzishga chaqirgan, lekin qo'shinlarining kaltabinligi oqibatida ittifoq tuzishga muvaffaq bo'la olmagan. Bu tarix yana takrorlanadi degan holatga yaqqol misol bo'la oladi. Salohiddin yana kuch to'plab 1182-yilda Mosul amrligiga hujum qilib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Keyinchalik Salohiddin Salibchilarning barcha ittifoqlarini birma-bir yo'q qilgach, nasroniylar ustiga yurish qilish uchun qulay fursat kutadi. 1185-yilning aprel oyida Quddus qiroli Balduin IV moxov kasalligidan vafot etdi. Ammo qirolning yoshligidan foydalangan Gi de Luzinyan (Givido Luzinyan 1192-yildan Qibris hukimdori, Luzinyanlar sulolasi asoschisi) va garaf Reno de Shatilon (Renaud de Chatilon) o'z qo'llariga oladi. Qirol Gi de Luzinyan va Reno de Shatilon Salohiddin ustiga yurish qilish uchun qo'shin to'pladi. 1185-yilning yozida salibchilar qo'shini Quddusdan yo'lga chiqdi Salohiddin esa salibchilarni Falastinning Xettin shaxrida kutib turdi. 1187-yil 4-iyul kuni Xettin yaqinida Quddus qiroli Gi de Luzingan va Salohiddin o'rtasida shiddatli jang boshlandi. Bu jangda Salohiddin g'alaba qozondi. Bu g'alaba musulmonlarning yaqin yuz yillikdagi eng muhim g'alabasi bo'ldi. 1187-yil Salohiddin Ayyubiy Quddus tomonga qo'shin tortdi. 20-sentabr kuni sulton qo'shini shaxarga yetib kelib qamalni boshladi. Qal'ada 60 minglik salibchilar qo'shini bor edi. 27-sentabr kuni qal'a devori manjanaqlar orqali teshildi. Quddus uchun ayovsiz jang boshlanadi. Ikki tomon ham juda yo'qotishlarga uchradi. Salibchilar bir kun taslim bo'lishi uchun sultonga elchi jo'natishdi. Biroq Salohiddin elchini qbul qilmay shunday dedi⁴:

„Yuz yil oldin salibchilar Quddusga qanday kirgan bo'lsalar men ham shunday kiraman“. 1187-yil 30-sentyabrda Quddusni ozod qildi Salohiddin sharqda mashhur bo'ldi, ovozasi butun yevropaga mashhur bo'ldi. Quddus yana ochiq shaxar deb e'lon qilinadi, o'zga din vakillari huquqlari kafolatlanadi. Biroq Yevropaliklar Quddus va o'zga yerlarni yana qaytarib olish uchun ingliz, farnsuz, olmon qirollari rahbarligida III Salib yurishini boshlaydilar. Ammo salibchilarning Quddusni qayta olish uchun besh yil davomida qilgan harakatlari puchga chiqadi. Urush 1192-yil 2- sentyabrda sulx shartnomasi tuzish bilan yakunlanadi va Quddus Salohiddinning qo'lida qoladi. Shomda...

³ Rahimov, S. (2008). Sarkardalar tarixidan. Tashkent: Fan.

⁴ Abdullayev, D. (2017). Salahuddin Ayyubi: tarix va meros. Samarkand: Meros.



Hijriyning 589-yilida Farang diyorida taqvimlar 1193-yil 4-martdani ko'rsatganda Sulton Salohiddin 55 yoshida vafot etadi. 24 yoshidan boshlab hayoti jang-gu jadalda kechgan Salohiddin vafot etadi.

XULOSA

Salohiddin Ayyubiyning Quddusni qaytarishi nafaqat harbiy muvaffaqiyat, balki tarixiy va diniy jihatdan ham muhim voqeadir. U, musulmonlar orasida kuchli birligini ta'minlagan, ularni krossaderlarga qarshi birlashishga undagan. Quddusni qaytarish jarayoni, Salohiddin Ayyubiy nafaqat janglarda g'alaba qozonishi, balki diplomatiya va strategiyalarda ham o'zini namoyish etganligini ko'rsatadi.

Quddus, o'rta asrlarda musulmonlar uchun eng muhim shaharlaridan biri bo'lib, bu shaharni qaytarish orqali Salohiddin Ayyubiy musulmonlarning diniy o'zligini mustahkamladi. U, shahar aholisiga hurmat bilan munosabatda bo'lib, ularga xavfsizlik va tinchlik taqdim etdi, bu esa musulmonlarning o'z tarixiy merosini saqlab qolishiga yordam berdi.

Salohiddin Ayyubiy, o'z harbiy strategiyalarini mukammal ravishda amalga oshirish bilan birga, madaniyat va diniy birlikni ham yuksaltirishga intildi. U o'zining hukmronligi davrida nafaqat harbiy g'alabalarni, balki madaniy va ilmiy rivojlanishni ham qo'llab-quvvatladi. Bu, kelajak avlodlarga meros sifatida qoldirilgan jozibali va tarbiyaviy tajribalar yaratdi.

Bundan tashqari, Salohiddin Ayyubiyning qiyofasi, ko'plab tarixiy shaxslar uchun ilhom manbai bo'lib, u o'zining haqiqiy liderlik qobiliyatlari bilan yodga olindi. Bugungi kunda, uning merosi musulmon dunyosida nafaqat tarixiy, balki ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, u ko'plab shaxslar uchun liderlik, jasorat va birlik ramzi sifatida qabul qilinadi.

References:

1. Qo'ziyev, A. (2011). Salohiddin Ayyubiy va uning davri. Tashkent: Sharq.
2. Murodov, O. (2015). Quddus va uning tarixiy ahamiyati. Tashkent: O'zbekiston.
3. Rahimov, S. (2008). Sarkardalar tarixidan. Tashkent: Fan.
4. Abdullayev, D. (2017). Salahuddin Ayyubi: tarix va meros. Samarkand: Meros.